

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI ANTROPOSENTRIK MAQOLLARDA GENDER TALQINI

Suyunova Zamira

Ilmiy rahbar: Ra'no Majidova O'rishevna

f.f.nomzodi, professor.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi erkaklar va ayollar haqidagi maqollarning antroposentrik xususiyatlari va ulardagi jins masalasi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu maqolada ikki tildagi eng mashhur maqollar va ularning ustida olimlar tomonidan olib borilgan ishlari keltirilgan. Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarni qiyoslab o'rganganimizda, ular o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni aniqladik.

Kalit so'zlar: *gender, antroposentrizm, paradigma, genderlingvistika, frazeologiya, mental va kognitiv jarayonlar.*

Maqollar har bir xalq madaniy va ma'naviy hayotini, uning o'y-fikr va xulosalarini ko'rsatuvchi asosiy mezonlardan biridir. Ularda o'sha xalqning uzoq o'tmishi, kechinmalari va xalq xotirasida saqlanib kelinayotgan afsonalari aks etadi. Shuningdek maqollar xalqning donoligi va uning tarixda boshdan o'tkazgan kechinmalari asosidagi xulosalarini ko'rsatadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollar ham ana shunday xususiyatlarga ega bo'lib, ular asrlar davomida kuzatishlarning hosilasidir, boshqacha qilib aytganda maqollar bu hikmatlar qaymog'idir.

Maqollarni chuqurroq tahlil qilish va ularning turli tillar o'rtasidagi farqlarini hamda muqobillarini topish hozirgi zamon tilshunosligining muhim masalasi bo'lib kelmoqda. Bilamizki, har bir tildagi frazeologik birliklar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Buning natijasida, til o'rganuvchi boshqa bir chet tilini o'rganayotganda avvalo o'zining tilidagi mana shunday birliklarga boshqa til birliklarini qiyoslab o'rganadi. Frazeologik birliklarning farqlari va o'xshash jihatlarini topish, xoh u maqol bo'lsin yoki so'z birikma, tilni yanada chuqurroq o'rganishda eng katta madad bo'ladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi erkaklar va ayollar haqidagi maqollarga keladigan bo'lsak, ikkala tilda ham gender masalasi asosiy o'rinda turadi shuningdek ularda turli xil farqli jihatlar ham mavjud. Chunki bu ikki til turli xil tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy shart sharoitda shakllangan. Va bu maqollarni antroposentrizm va jins masalasi nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz lozimdir.

Avvalo antroposentrizm va gender masalasiga urg'u beradigan bo'lsak, bu konseptlar bugungi kun zamonaviy tilshunosligining asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Til sistemasining har bir qatlamida alohida xususiyatlarga ega bo'lgan paradigmlar mavjud.

Paradigma (lot. *parádeigma* – *παράδειγμα*) metodologik tushuncha sifatida XX asrning so‘nggi choragida amerikalik faylasuf Tomas Kun tomonidan ilmiy iste‘molga kiritilgan. Olim o‘zining 1962 - yilda chop etilgan “Ilmiy inqiloblar strukturasi” nomli kitobida ushbu atamadan ilm-fandagi “sakrash”larni izohlash maqsadida foydalangan. “Paradigma” har bir tilshunos uchun aniq falsafiy, metodologik xarakterli tushuncha hisoblanadi.

XX asr so‘ngida tilshunoslikda yangi paradigma, **antroposentrizm** kirib keldi. Chunki til jamiyat uchundir, uning ahamiyati inson psixikasining mental, kognitiv jarayonlarida ko‘rinadi va nihoyat, ommaviy kommunikatsiyada til – vosita funksiyasini bajaradi.

Bundan tashqari, antroposentrik maqollarda gender ya‘ni jins masalasi ham alohida o‘rin tutadi. **Genderlingvistika** tilshunoslikdagi zamonaviy yo‘nalishlardan biri sifatida rivojlanib kelmoqda. Hozirgi davr tilshunosligida gumanitar fanlar qatorida insonning, ya‘ni erkak va ayolning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning ruhiy olami va tili ijtimoiy, madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq jarayonlarni tadqiq qiluvchi genderlingvistika fani muhim bo‘lib bormoqda. **Gender tushunchasi** fanga biologik jinsning, ya‘ni erkak va ayol o‘rtasidagi farqni ko‘rsatuvchi tushuncha sifatida kiritilgan. Ijtimoiy jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, bu tushuncha jamiyatdagi erkaklar va ayollar rolini ko‘rsatib beruvchi tushunchadir.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi antroposentrik maqollarda gender talqinini yoritadigan bo‘lsak, ushbu ikki tilda ham erkak oilani iqtisodiy tomondan ta‘minlovchi, ayol esa undagi ijtimoiy va ruhiy muhitga javobgar shaxs hisoblanadi. Buni quyidagi maqollar misolida ham ko‘rishimiz mumkin:

Man makes houses, woman makes homes.

Men get wealth, woman keep it.

O‘zbek tilida ular quyidagicha:

Ayol so‘m qilar, erkak chaqa.

Yomon erkak to‘y buzar, yomon xotin uy.

Shuningdek, o‘zbek tilidagi "**Erni er qiladigan ham xotin, qaro yer qiladigan ham xotin**" maqoli ingliz tilida "**A good husband makes a good wife**" yoki "**A good Jack makes a good Jill**" ifatida o‘zgaradi. Ya‘ni mas‘uliyat ko‘proq erkak kishiga yuklanadi.

Bundan tashqari oilada farzand tarbiyasi, ayniqsa qiz bola tarbiyasi, har ikki xalq madaniyatida ham ayollarga yuklanadi. Quyidagi maqollarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

As is the mother, so is her daughter - Onasini ko‘rib qizini ol.

Lekin ushbu mazmundagi maqollarning ham erkak ham ayol javobgarligini ko‘rsatuvchi shakli ham ingliz tilida mavjud:

Like mother, like daughter. - Like father, like son.

Gender masalasi tomonidan qaraydigan bo'lsak, jamiyat boshqaruvi, donolik va donolik tushunchalari asosidagi maqollarda asosan "erkak" so'zi bilan beriladi. Buni quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz:

The wit of one man, the wisdom of many.

The healthful man can give counsel to the sick.

What's a man but his mind?

In the land of blind, the one-eyed man is king.

O'zbek tilida ham bunday mazmundagi maqollar mavjud. Masalan:

Arslon izidan qaytmaydi, yigit so'zidan.

Yomon o'g'il - molga o'rtoq,

Yaxshi og'il jonga.

Shuningdek, ko'rinish, go'zallik va yoshlik tushunchalari asosidagi maqollarda ikki tilda ham asosan ayol-qizlarni ko'rishimiz mumkin. Misol uchun ingliz tilida ular quyidagicha:

A man is old as he feels, a woman is as old as she looks.

Ushbu maqolning ekvivalenti sifatida o'zbek tilidagi quyidagi maqolni olishimiz mumkin:

Ayoldan yoshini so'rama, erkakdan maoshini.

E'tiborli jihatlaridan yana biri shuki, ingliz tilidagi ba'zi antroposentrik maqollarning muqobillari o'zbek tilida erkak yoki ayol ishtirokisiz yoki hayvonlar nomlari bilan ham beriladi:

A dog is man's best friend - *It vafo, xotin jafo.*

A hungry man is an angry man - *Ochdan qoch.*

The coat makes the man - *Kurakka libos, eshakka to'qim.*

The man in boots doesn't know the man in shoes- *Tani boshqa dard bilmas.*

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillaridagi antroposentrik maqollarning gender masalasi jihatidan bir qancha farqli va o'xshash jihatlari mavjud. Chet tillarini bilish zamon talabi bo'lib turgan dunyoda maqollarni o'rganish va ularni suhbatimizni bezashda qo'llash til o'rganuvchilarini yana bir yuksak pog'onaga ko'taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayev T. "O'zbek xalq maqollari"
2. O'zDJTU magistratura bo'limi talabalari uchun darslik "Cultural Linguistics" D. Ashurova, M. Galiyeva.
3. O'zDJTU magistratura bo'limi talabalari uchun darslik "Cognitive Linguistics" N. Djusupov va boshq.
4. "Ingliz va o'zbek tilidagi maqollarning milliy-madaniy va universal xususiyatlari" mavzusidagi maqola, M.Y. Mirzaaxmedova.
5. <https://hellcomics.ru/uz/aforizmy-i-poslovicy-o-muzhchine-o-zhenshchine/>
6. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" - T.: O'qituvchi; 1990.
7. Kuskovskaya S. "English proverbs and sayings"
8. Ray John "Complete collection of English proverbs"